

CHORI AVAZ SHE'RIYATIDA METAFORA VA O'XSHATISHLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Amonova Mavluda Raximjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Gmail: amonovamavluda32@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Chori Avaz (Avazov) she'riyatida qo'llanilgan metafora va o'xshatishlar atroflicha tahlil qilingan. Metafora va o'xshatishlarda borliqni, undagi narsa-predmetlarni ta'riflash va o'z lisoniy manzarasida aks ettirish xususiyatlari badiiy ifodasini topgan. Ularda ijodkorning voqelikni qay darajada idrok qilishi, voqelikka munosabati, tafakkuri, til birliklarini qo'llash mahorati kabilar aks etadi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, ko'chim, poetik leksikologiya, o'xshatish, metafora: odatiy metaforalar, jonlantirish, sinestetik metaforalar, tashxis, intoq.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi har bir adabiy davrning muhim ilmiy-nazariy masalalari, muammolari bilan boshqa tilshunoslik sohalaridan ajralib turadi va bu masalalar uning xarakterli tomonidir. Xususan, badiiy ijod namunalarimiz, mukammal adabiy merosimiz lingvopoetik xususiyatlarini to'laqonli tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Lingvopoetikaning umumiy masalalari doimiy ravishda dunyo tilshunoslarining tadqiqot markazida bo'lgan, ular tomonidan fundamental o'rganilgan sohadir. Badiiy matn tili, shakli va mazmun birligi, til birliklarining estetik vazifasi, badiiy qimmat, uning o'quvchiga estetik ta'sirini o'rganish lingvopoetikaning asosiy vazifasi bo'lib keldi.

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnning til xususiyatlari o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasida lingvopoetika deb ataluvchi tilshunoslik tarmog'i shakllanib, istiqbolli bir yo'nalishga aylanib ulgurdi. Ma'lumki, nutqiy faoliyatning o'ziga xos noyob turi - bu badiiy adabiyotdir. Uning til birliklarini tatbiq etishda lingvopoetik tahlil muhim ahamiyatga ega. Lingvopoetika tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishiga qarab fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi qismlarga bo'linadi.¹

Poetik leksikologiya yo'nalishining tadqiqot ko'lami juda keng qamrovlidir.

U o'z doirasida sinonim, omonim, antonim so'zlarni, ma'no ko'chishlarining barcha jabhalarini (metafora, metonimiya, sindekdoxa, vazifadoshlik, kinoya), chegaralangan leksikalarni (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...) tahlil qiladi.

¹ Nurmonov A, Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent: Fan. 2008.-B.152

Tilimizda shunday obrazli ifodalar, turg'un birliklar borki, ularni lingvopoetik yondashuvda tadqiq etish o'zbek tilining ochilmagan qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. O'xshatish – badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lib obyektни obrazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lib, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tilimizda o'xshatishga nisbatan ham metafora atamasi ko'p qo'llaniladi. Lekin metafora va o'xshatish orasida ma'lum farqlar bor. Bu farqlarni “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” asari muallifi M.Yo'ldoshev shunday taqqoslaydi: “1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforalarda so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gao hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi”.² Buni shoir Chori Avazning she'rlaidan keltirilgan misollardan ham ko'rishimiz mumkin:

Xazonlar raqsiga mayus termulib,
O'tgan kunlarimdan mantiq axtardim.
Ilhom kelayotir do'stimday kulib,
Munis kuzga ifsho etgali dardim.

O'xshatish konstruksiya. Bu misradagi ilhom – o'xshatish subyekti, do'st - o'xshatish etaloni, kulib kelayotir – o'xshatish asosi, -day – o'xshatishning shakily ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish.

Bas...s!
Osmonlarda yashashdan to'ydim,
Qanotim og'irlik qilmoqda.
Men endi tosh,
Meteor kabi
Otilgan Yer tomon.
Yo'l uzun, yo'l uzoq, yo'l yiroq,
Sen – orzu, sen – hayot, sen...
Biroq, bas.

Shoirning “Ro'shnolik” she'ridan olingan parchadagi “Sen – orzu, sen – hayot, sen...” misrasida qisqargan o'xshatishlar mavjud. Chunki ularda o'xshatishning asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanamagan. Metaforalarga

² Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.-Toshkent, 2007.-B.96

misollar: 1. Ish nayzasi nishon aylagan Qo'lda tutib kemtik yurakni. 2. Yoshman-ku, ne uchun asov yurakni Yuvosh torttiradi bu kekxa navo? 3. Mana, xazonlarning tilida navo, Raqs etib yo'qlikka qilmoqda safar. 4. Zulmat bosib kela boshladi, Tun tushirdi qora pardasin. 5. Nafisgina bir zangor tuyg'u She'r uyiga burdi yo'lini.

Tilshunoslikda mazmuniy jihatda metaforalarning uch turi, ya'ni odatiy metaforalar, jonlantirish va sinestetik metaforalar farqlanadi.³ Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. "Badiiy san'atlar" kitobida jonlantirish haqida shunday deyiladi: "Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir".⁴ "O'zbek tili stilistikasi"da ham "kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi"ga⁵ jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

1. Tashxis – shaxslantirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash.

She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlashtirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyida shoir Chori Avazning "Tortilgan kamon" turkumidan keltirilgan she'riy parchada muallif "tabiat hodisalari"ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

Tong. Quyosh ataylab chiqqanday
Albatta olmoqqa o'chini –
Sovuqqa, ayoqqa, qorlarga
Ko'rsatib qo'ymoqqa kuchini.
Yosh to'ka boshladi quyoshning
Qish chidash berolmay qahriga.
Va yig'lab bosh qo'ydi nish urgan
Maysalar lashkarin bag'riga.
Maysalar bezovta dildirab
Quyoshdan iltifot so'raydi...
Kech. Quyosh maysalar lashkarin
Tun bilan qoldirib jo'nadi.
Tun esa boqqancha ularga
Hayratdan kelmasdi hushiga –
Maysalar miriqib uxlardi

³ Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. АДД.-Т., 1989, с-13

⁴ Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001.-B.11

⁵ Shomaqsdov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi.-T.: "O'qituvchi", 1983.-B.245

Quyoshni ko‘rishib tushida.

2. Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Bu tur jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Shoir Chori Avazning “Tortilgan kamon” turkumidan joy olgan “Orol nidosi” deb nomlangan she’rida intoq-jonlantirishdan unumli foydalanilgan va Orolni so‘zlatish orqali tasvirlanayotgan voqelikni o‘quvchiga ta’sir kuchini yanada oshishiga erishilgan:

Kel, menga hamdam bo‘l, kel, meni tushun –
Ko‘p emas, bir lahzang baxsh et men uchun;
Yo‘lma-yo‘l men tashlab chiqqan vatan bo‘l,
Quyuni, bo‘ronlarga bir on maskan bo‘l;
Uzoqlarda qolgan qirg‘og‘im bo‘lgin,
Tuzu qumga to‘lgan qarog‘im bo‘lgin;
Bir lahza kemam bo‘l, zangla va chiri,
Bir lahza baliqday jon ber, so‘ng tiril;

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va hu asosda ko‘chma ma’no yuzaga keladi. Masalan, Shirin tabassum, shirin gap; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam: og‘ir gap, og‘ir masala kabi. Bu misollarda keltirilgan Shirin, yengil, og‘ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo‘lgan. Maza-ta’m ma’nosini bildiruvchi “shirin” va o‘lchovni ifodalovchi “yengil” so‘zlari “yoqimli” ma’nosida, “og‘ir” so‘zi esa “yoqimsiz” ma’nosida kelgan.

Xulosa qilib aytganda shoir Chori Avaz she’riyatida badiiy san’atlar va uslubiy vositalarning keng qo‘llanilgani bilan ajralib turadi. She’rlarida foydalanilgan metafora va o‘xshatishlar kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini ifodalabsh uchun, tasvirni yanada jozibali va ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qilgan. Shoir she’riyatidan keltirilgan parchalarda tahlilga tortilgan metafora va o‘xshatishlar ham lingvopoetikaning asosiy o‘rganish obyektlaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san’atlar. TDPU, 2001.-B.11
2. Nurmonov A, Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent: Fan. 2008.-B.152
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007.-B.96
4. Shomaqsudov A. va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi.-T.: O‘qituvchi, 1983.-B.245
5. Avazov Ch. Saylanma.-Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
6. Avazov Ch. Tortilgan kamon.-Samarqand, 1990
7. Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. АДД.-Т.,1989, с-13